



FINLAND

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC
ONLINE CONFERENCE**

SUSTAINABILITY OF EDUCATION, SOCIO-ECONOMIC SCIENCE THEORY

Info.interconf@mail.ru

www.interonconf.net



ISOC
INTERNATIONAL
SCIENTIFIC
ONLINE
CONFERENCES



SUSTAINABILITY OF EDUCATION SOCIO- ECONOMIC SCIENCE THEORY

International scientific-online conference

Part 4
DECEMBER 7th
COLLECTIONS OF SCIENTIFIC WORKS

HELSINKI 2022

TABLE OF CONTENTS:

Файзуллаева Гулмира Баходир кизи Хайитова Гулхаё Ражабовна <i>ФОРМИРОВАНИЕ ОСНОВ ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ У ДОШКОЛЬНИКОВ</i>	7
Rejapova Dilafruz Akramovna <i>O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KORRUPSIYANI OLDINI OLISH VA UNGA QARSHI KURASHNING HUQUQIY ASOSLARI</i>	19
Saydillayeva Mehrinaz Bahodir qizi <i>6-7 YOSHLI BOLALAR UCHUN MO'LJALLANGAN MAJBURIY BOSHLANG'ICH TA'LIMGA BIR YILLIK TAYYORLASH GURUHLARIDA BOLA PORTFOLIYOSINI YARATISH ORQALI TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH</i>	23
M.S.Bazarova Kozimov Shahboz <i>WAYS TO INCREASE THE EFFICIENCY OF AVAILABLE TOURIST FACILITIES IN UZBEKISTAN</i>	28
Bazarov Ihtiyor Rahmatullayevich Kenesova Jazira Bauirjan qizi <i>CHALLENGES IN PUBLIC SCHOOLS AND THEIR SOLUTION</i>	31
Yo'ldoshev Bekmirza Shuxrat o'g'li <i>MATEMATIKADA O'QUVCHILARNI KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODI</i>	33
D.Nabiyeva <i>BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARINI INTEGRAL YONDASHUV ASOSIDA MA'NAVIY – AXLOQIY KOMPETENLIKLARINI TAKOMILLASHTIRISH</i>	37
Каримов Асрор Акбарович <i>“АҚЛЛИ ШАҲАР” ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯСИ ОРҚАЛИ “АҚЛЛИ ЙЎЛЛАР” ХАВФСИЗЛИГИГА ҚАРАТИЛГАН ЭЪТИБОР</i>	43
Хидирова Ирода Хосиловна Омонова Шахло Бурхановна <i>ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА</i>	46
Ҳахуаева Zumrad Islomovna <i>CHET TILI O'QITISHDA DARSLIK KITOBLARINING AHAMIYATI</i>	51
Odinayev Abbosbek <i>THE PRIMARY STAGE OF FOREIGN LANGUAGE TEACHING THROUGH ACTIVITIES</i>	53

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KORRUPSIYANI OLDINI OLISH VA UNGA QARSHI KURASHNING HUQUQIY ASOSLARI

Rejapova Dilafruz Akramovna

A.Avloniy nomidagi milliy- tadqiqot instituti

“Uzluksiz kasbiy ta’lim” kafedrasi katta o’qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada hozirgi davrda korrupsiya ko’pgina davlatlarning iqtisodiy va siyosiy salohiyatiga o’zining salbiy ta’sirini ko’rsatib kelayotganligi hamda yurtimizda korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashishda huquqiy yondashish zarur bo’lgan dolzarb vazifalar haqida fikr yuritilgan.*

Tayanch so’zlar: *Qonun, Farmon, Qaror, korrupsiya, jinoyat, huquqbuzarlik, manfaatlar to’qnashuvi.*

Korrupsiya dunyo miqyosida hal etilishi lozim bo’lgan global muammolardan biridir. Ushbu illat har qanday davlat va jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy putur yetkazadi, inson huquq va erkinliklarining poymol bo’lishiga olib keladi. Shu bois unga qarshi kurash xalqaro ahamiyat kasb etib, jahon siyosatining muhim masalalari qatoridan joy olgan.

Korrupsiyaviy huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalar tizimi quyidagilar hisoblanadi:

Ichki ishlar organlari; Davlat bojxona xizmati organlari; Prokuratura organlari, Davlat xavfsizlik xizmati organlari; Adliya organlari; Davlat soliq xizmati organlari, Mehnat organlari, O’zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo’mitasi organlari; Ta’limni davlat tomonidan boshqarish organlari va ta’lim muassasalari; Davlat sog’liqni saqlash tizimini boshqarish organlari va sog’liqni saqlash muassasalari bevosita korrupsiya qarshi kurashishda va uning oldini olishda ishtirok etadilar.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo’yicha faoliyatni qonunchilikka muvofiq boshqa davlat organlari ham amalga oshiradi. Qonun bilan yuqorida sanab o’tilgan organlarning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi vakolatlari belgilangan. Bundan tashqari, fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va boshqa tashkilotlar, OAV va fuqarolar korrupsiyaga qarshi kurashishda ishtirok etadi.

Hozirgi davrda korrupsiya ko’pgina davlatlarning iqtisodiy va siyosiy salohiyatiga o’zining salbiy ta’sirini ko’rsatib bera oldi. Unga qarshi kurashish, muntazam ravishda amalga oshirilishi zarur bo’lgan dolzarb vazifalardan biriga aylandi.

Yurtimizda korrupsiyaga qarshi kurash yuzasidan qanday ishlar olib borilayotgani xususida so’z yuritadigan bo’lsak, o’tgan yillar mobaynida poraxo’rlik, mansab vakolatini suiiste’mol qilish kabi holatlar bo’yicha qonunchilikda turli jazolar belgilangan. Shunga qaramasdan, bizda bevosita korrupsiyaga oid qonun yo’q edi.

Shulardan kelib chiqib, 2017-yil 3-yanvarda O'zbekiston Respublikasi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. Ushbu Qonun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan 2016-yil 24-noyabrda qabul qilingan. Senat tomonidan 2016-yil 13-dekabrda ma'qullanib, Respublika Prezidenti tomonidan 2017-yil 3-yanvarda imzolanganidan so'ng O'RQ-419-son bilan ro'yhatga olingan.

Ushbu Qonun mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashishda muhim dasturilamal bo'ladi, deb ayta olamiz.

Qonun orqali korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy mexanizmi yaratildi. Uning asosiy maqsadi korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir.

Qonun 6 bob, 34 moddadan iborat. 1-bob - Umumiy qoidalar. 2-bob - Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlar. 3-bob - Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish. 4-bob - Korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar. 5-bob - Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga chek qo'yish, javobgarlikning muqarrarliligi va 6-bob - Yakunlovchi qoidalarni o'z ichiga oladi.

Ushbu Qonunning 3-moddasida:

Manfaatlar to'qnashuvi – shaxsiy manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat deb ta'rif berilgan.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik – korrupsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan qilmish¹.

Qonunning 4-moddasida: korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy tamoyillari bayon etilgan. Xususan, unda qonuniylik, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi, ochiqlik va shaffoflik, tizimlilik, davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi, korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi, javobgarlikning muqarrarliligi bayon etilgan.

Qonunning 5-moddasida: Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi Davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari ko'rsatib o'tilgan bo'lib, ular korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarliligi prinsipini ta'minlash, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga chek qo'yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilangan.

¹ O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida" gi Qonuni. Toshkent sh. 2017-yil 3-yanvar, O'RQ-419-son

Qonunning 6-moddasida: Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlari va boshqa dasturlar haqida soʻz yuritilgan.

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlari va boshqa dasturlarga keladigan boʻlsak, Davlat dasturlari va boshqa dasturlar ushbu qonunning qoidalari samarali ijro etilishini taʼminlash, korrupsiyaning holati hamda tendensiyalaridan kelib chiqqan holda korrupsiyaga qarshi kurashish boʻyicha kompleks va tizimli chora-tadbirlar koʻrish maqsadida ishlab chiqiladi hamda amalga oshiriladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosati davlat dasturlari va boshqa dasturlar asosida amalga oshirilishi mumkin

Mazkur Qonun oʻz navbatida, fuqarolarga korrupsiya va korrupsiyaga oid huquqbuzarlikning nima ekanligi va ularning salbiy illatlari haqida maʼlumot beradi.

Darhaqiqat, korrupsiya har qanday jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, maʼnaviy hayotiga xavf soladigan, qolaversa, mamlakat taraqqiyotiga toʻsiq boʻladigan illatdir.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etishning umumiy strategiyasini amalga oshirish doirasida qonun ustuvorligini taʼminlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, sud-huquq tizimini isloh qilish va bunda korrupsiya jinoyatiga qarshi kurashish yuzasidan qator chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

Mamlakatimizda olib borilayotgan tub islohotlar sharoitida davlat qurilishi va huquqiy siyosatning mazmun va mohiyatini aniqlashtirish, uning maqsad va vazifalarini islohotlarning bugungi taraqqiyoti asosida shakllantirib borish, inson manfaatlarini taʼminlashning strategik jihatdan yangi vositalar bilan bir qatorda, ham taktik xususiyatga ega boʻlgan yangi usullarni qoʻllash, shaxs hamda jamiyat manfaatlarini yanada samaraliroq himoya qilish, korrupsiyaning oldini olishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish ehtiyoji vujudga kelishi bilan belgilanadi.

Jumladan, davlat organlari va tashkilotlarining faoliyatida ochiqlik, oshkoralik va shaffoflikni taʼminlash hamda mansabdor shaxslarning aholi oldidagi hisobdorligini yoʻlga qoʻyish orqali davlat boshqaruvida samarali va taʼsirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun zarur sharoitlar yaratildi.

Taʼlimda Korrupsiyaga qarshi kurashish boʻyicha 2021-2022-yillarga moʻljallangan Davlat dasturining ahamiyatiga keladigan boʻlsak, Taʼlim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy taʼlim berish boʻyicha tizimli va manzilli tadbirlarni amalga oshirish; Yoshlarga korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy taʼlim berish boʻyicha kompleks chora-tadbirlarni tasdiqlash vazifalari belgilangan².

Biz dunyoda ildiz otgan yana bir salbiy illat - korrupsiyaning ayrim jihatlari xususida soʻz yuritdik. Ayni kunda mamlakatimiz Bosh prokuraturasi, sud-huquq idoralari,

² Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda boʻlish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida. Toshkent sh., 2021-yil 6-iyul, PF 6257-son

vazirliklar va boshqa tashkilotlar hamda jamiyatimiz a'zolari bir yoqadan bosh chiqarib korrupsiyaga qarshi kurash olib borayotganini ta'kidlagan holda, bu sa'y-harakatlar yaqin yillarda o'z samarasini beradi, deb ayta olamiz.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida" gi Qonuni. Toshkent sh., 2017-yil 3-yanvar, O'RQ-419-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Korrupsiyaga qarshi murossasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida. Toshkent sh., 2021-yil 6-iyul, PF 6257-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6013-son.